

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

Yormatov Sanjarbek Matnazarovchning

5141500 “Milliy istiqlol g‘oyasi, huquq va ma’naviyat asoslari”

yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

**MAVZU: “O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK VA UNING
KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI”**

Ilmiy rahbar:

o‘qit. A. Tojiyev

Urganch 2013 yil

1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix fakulteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası

**MAVZU: “O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK VA UNING
KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI”**

Bajaruvchi:

S. Yormatov

Ilmiy ahbar:

o‘qit. A. Tojiyev

Urganch shahri 2013-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba. Yormatov Sanjarbekga Universitet rektorining «189T 1&»-sonli 25- dekabr 2012- yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “O'zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan. o'qit. A. Tojiyev bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ish kirish, tushuntirish qismi 2 bob, 6 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlaridan, huquqiy adabiyotlardan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____

_____ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2012-yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2013-yil Yanvar
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2013-yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2013-yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2013-yil aprel
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2013-yil may
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	2013-yil may

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

o'qit. A. Tojiyev

Bajaruvchi talaba:

S. Yormatov

2012 yil «29» dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2012 yil tasdiqlandi

(«9»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullayev

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Yormatov Sanjarbek

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: O'zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari.

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 75 sahifa

Tushuntirish qismi: 57 sahifa

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi" degan norma mustahmlab qo'yilgan. Mazkur moddada mustahkamlangan normaga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi faqat "o'z fuqarolarini" ning huquq va manfaatlarini o'z hududida hamda uning tashqarisida himoya qiladi va kafolatlaydi. Ana shu asosiy qoidadan kelib chiqib "O'zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari" mavzusi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Nimaga deganda, insonlarning huquq va manfaatlarining himoya qilinishi hamda kafolatlanishi ko'p jihatdan fuqarolik maqomi bilan bog'liq. Agar shaxs muayyan davlatning fuqarosi bo'lsa, uning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi. Bitiruvchi talaba Yormatov Sanjarbek barcha fanlarni to'la o'zlashtirib, ularni amaliyotga qo'llash ko'nikmasiga ega. Bitiruvchi talaba Yormatov Sanjarbek universitetda to'rt yillik o'qish faoliyati davomida pedagoglik kasbining barcha talablarini bajarish ko'nikmasiga, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va interfaol metodlardan samarali foydalana olish mahoratini chuqur egalladi. Bitiruvchi talaba Yormatov Sanjarbek o'zining mutaxassisligini juda yaxshi egalladi. Umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi

yuqori darajada. Yormatov Sanjarbek pedagoglik kasbi bilan bir qatorda boshqa kasblarda ham faoliyat yuritib oladi.

Bitiruvchi talabning mustaqil ishini bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari. Yormatov Sanjarbek mustaqil ishini bajarish layoqatiga va mahsus adabiyotlardan mustaqil foydalanish qobiliyatiga ega. O'zining mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. O'z ustozlariga va tengdosh talabalarga nisbatan yaxshi muomulada bo'ladi, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Bitiruv malakaviy ishda fuqarolik tushunchasi, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslari, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish va o'zgartirish, fuqarolikning to'xtatilishi va uni tiklash, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari va ularning vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibi huquqshunos olimlarning asarlaridan, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va qonunosti hujjatlaridan foydalangan holda batafsil yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi. Bitiruv malakaviy ish bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablar darajasida bajarilgan. Kirish qismi va asosiy qismida keltirilgan ma'lumotlar aniq faktlar asosida to'la bayon qilib berilgan.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

o'qit. A. Tojiyev

2013 yil «25» may

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

“Milliy istiqlol g‘oyasi, huquq va ma’naviyat asoslari”

yo‘nalishi bitiruvchisi Yormatov Sanjarbekning

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: O‘zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari

Malakaviy ishning hajmi: 12570 so‘zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 57 sahifadan iborat

b) ilovalar soni:-

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasida “Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi” deb, mustahkamlab qo‘yilgan. Mazkur moddada qat’iy belgilab qo‘yilgan norma-ga e’tibor beradigan bo‘lsak, davlat “fuqarolarning” asosiy qonun hisoblangan Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo‘yilgan huquqlari va erkinlik-larini ta’minlashni kafolatlab bergan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, inson-lar huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi bevosita davlat va shaxs o‘rtasidagi si-yosiy va huquqiy aloqa bilan bog‘liqdir. Bu aloqa esa shaxsning fuqarolik maqomi orqali yuzaga keladi. Shu sababli demokratik huquqiy davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilgan davlat, jamiyat va xalq uchun fuqarolik institutining o‘rganilishi dol-zarb ahamiyaga ega.

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismi mavzuning dol-zarbligi, ilmiy o‘rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, ob’yekti va predmeti, ilmiy-amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va xaj-

midan iborat tarkibda tuzilgan. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismiga kiritilgan har bir tarkibiy tuzilma to'la bayon qilib berilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda Prezident asarlaridan, yetuk huquqshunos olimlarning huquqiy adabiyotlaridan, innovatsion yutuqlar natijalari va internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Bitiruv malakaviy ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Bitiruv malakaviy ish ilmiy- uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Bitiruv malakaviy ishda mavzuning ilgari huquqiy adabiyotlarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan materiallaridan umumiy o'rta ta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilariga, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilariga, oliy o'quv yurti talabalariga ta'lim berishda, o'quvchi talabalar ishtirokida o'tkaziladigan huquqiy savodxonlik kechalari va tadbirlarda, yuridik maslahatchilar tomonidan fuqarolik masalalari bo'yicha fuqarolarga, chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga huquqiy maslahatlar berishda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi: _____ Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrasida o'qituvchisi H. Saidov

2013 yil «31» may

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo‘limlar	Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari ta'limi yo'nalishi bitiruvchisi Yormatov Sanjarbekning "O'zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «___» 2013 yil «___iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarining mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. _____

mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2013 yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Yormatov Sanjarbek

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: O'zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: o'qit. A. Tojiyev

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «29» mayda o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib H. Saidov tayinlandi.

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullayev

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

dots. T. Abdullayev

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari yo'nalishi
5141500 ta'lim bakalavr

Tasdiqlayman
fakultet dekani
dots. T. Abdullayev
“ ____ ” _____ 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Yormatov Sanjarbek

1. Ishning mavzusi: O'zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari

«25» dekabr 2012 yil universitet rektorining 189 & 1- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” _____ 2013 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati.

a) R.Q.Qayumov O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997 y.

b) U. Tadjixanov, X. Odilqoriyev, A. Saidov O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., «Sharq» 2001, -752- b.

v) A. Saidov Inson huquqari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik.-T.: 2004.

g) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik ./Mas'ul muharrir: A.X.Saidov /.:TDYUI, 2005. -480 b.

d) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O'zbekiston» 2008.

4. Ishning maqsadi: O'zbekistonda fuqarolik va uning huquqiy asoslarini hamda fuqarolikning ahamiyatini ko'rsatib berish

5. Chizma materiallar ro'yxati: _____

6. Maslahatchilar:_____

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

o'qituvchisi H. Saidov

(imzo)

7. Ilmiy rahbar: A. Tojiyev

(imzo)

BMI bajaruvchi talaba: S.Yormatov

(F.I.Sh.)

(imzo)

Kafedra mudiri: dots. O. Abdullayev

(F.I.Sh.)

(imzo)

MAVZU: O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK VA UNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.

REJA:

Kirish

I-bob. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining Konstitutsiyaviy asoslari.

1. 1-§. Fuqarolik tushunchasi va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslari.
1. 2-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini o'zgartirish asoslari.
1. 3-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash asoslari.

II-bob. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari.

2. 1-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari va ularning vakolatlari.
2. 2-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibi.
2. 3-§. O'zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi ("Aqliy hujum" metodi orqali).

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu-insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e‘tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta‘minlab beradigan davlatdir”¹. Dunyo hamjamiyatidan o‘zining munosib o‘rini egallashga harakat qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi milliy huquq tizimini bunyod etar ekan, milliy davlatchilik ramzlaridan biri bo‘lgan fuqarolik institutiga alohida e‘tibor qaratdi. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslarini yaratishda asosiy e‘tibor albatta halqaro huquq tomonidan umume‘tirof etilgan tamoyillarga qaratilgan. Dunyoviy, huquqiy, demokratik tamoyillarga asoslangan davlat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etish mazmunida, uning manbai va faol a‘zosi hisoblangan fuqarolarning huquq va erkinligi, manfaati, insoniy qadriyatlari ustuvorligini belgilash va ta‘minlash bosh qoida sifatida mamlakatimiz tomonidan e‘tirof etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasida “Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta‘minlaydi”² degan norma mustahkamlab qo‘yilgan. Mazkur moddaga e‘tibor beradigan bo‘lsak, davlat “fuqarolarning” asosiy qonun hisoblangan Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo‘yilgan huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashni kafolatlab bergan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, insonlar huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi bevosita davlat va shaxs o‘rtasidagi siyosiy va huquqiy aloqa bilan bog‘liqdir. Bu aloqa esa, shaxsning fuqarolik maqomi orqali yuzaga keladi. Shu sababli demokratik huquqiy davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilgan davlat, jamiyat va xalq uchun fuqarolik institutining o‘rganilishi dolzarb ahamiyatga ega.

Fuqarolik maqomi asosida davlat va shaxs munosabatlarining mohiyati ochib beriladi. Fuqarolik maqomiga ega bo‘lgan shaxslar davlat bilan muayyan huquq va burchlar ila uzviy, mustahkam munosabat o‘rnatar ekan ushbu munosabatlarda har ik-

¹ I. Karimov Buyuk kelajak sari. T.: “O‘zbekiston” 1998-yil 15-b.

² O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi .-T.: «O‘zbekiston» 2012, - 40-b, 10-bet.

ki tomon uchun manfaatlar uyg'unligi tan olinadi. Shunday ekan, fuqarolik institutini o'rganish o'zining dolzarbligini va ahamiyatini yuqotmaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Fuqarolik masalalari Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida¹, Respublikamizning etuk huquqshunos olimlari R. Q. Qayumov², U. Tadjixanov, X. Odilqoriev, A. Saidov³ va boshqa olimlarning asarlarida yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishdan ko'zlangan maqsad fuqarolik tushunchasi, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslarini huquqshunos olimlarning asarlaridan, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va qonunosti hujjatlaridan foydalangan holda chuqur tadqiq etish va mavzuni batafsil yoritib berish orqali fuqarolik maqomining ahamiyatini, O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo qilinayotganligini aniq faktlarga tayanib asoslab berish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- fuqarolik tushunchasi va uning mazmun mohiyatini tadqiq qilish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslarini chuqur o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish va o'zgartirish tartibini batafsil yoritib berish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi va uni tiklash tartibini tahlil etish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari va ularning vakolotlari to'g'risida batafsil ma'lumot berish;

¹ Karimov I. A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T.: «Sharq», 1993. 9-bet.

Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.// Bizan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom.-T.: «O'zbekiston», 1996. -380-b.

Karimov I. A. Konstitutsiya to'g'risida.-T.: Akademiya, 2001, -156-bet,54-bet.

² Qayumov R. Q. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997 y

³ U. Tadjixanov, X. Odilqoriev , A. Saidov O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., «Sharq» 2001, - 752- b, 340-bet.

A. Saidov Inson huquqari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik.-T.: 2004, 271-bet

- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibini asoslash.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik va ilmiy-nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy asoslari bo'lib, respublikamiz Prezidenti asarlarida, etakchi huquqshunos olimlar va mutaxassislarning ushbu mavzuga oid ilmiy ishlari da ilgari surilgan g'oyalar, fikr va mulohazalar xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqotni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlardan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti sifatida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik masalalariga oid qonun hujjatlari tanlangan. Xususan, «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizomdan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida O'zbekistonda fuqarolik institutining asosiy tamoyillarini o'rganish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan materiallar umumiy o'rta ta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilariga, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o'quvchilariga, oliy o'quv yurti talabalariga ta'lim berishda, o'quvchi talabalar ishtirokida o'tkaziladigan huquqiy savodxonlik kechalari va tadbirlarda, yuridik maslahatchilar tomonidan fuqarolik masalalari bo'yicha fuqarolarga, chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga huquqiy maslahatlar berishda muhim manba sifatida foydalanish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, tushuntirish qismida 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 75 betni tashkil etadi.

I-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.

1.1-§. Fuqarolik tushunchasi va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslari.

Bugungi kunda “fuqaro”, “fuqarolik”, “fuqarolik jamiyati”, “fuqarolik mas’uliyati”, “fuqaro huquqlari va erkinliklari” tushunchalari demokratik rivojlanishning shartlaridan biriga aylandi. Binobarin, demokratiya va fuqaro erkinligi hamda uning faolligini ta’minlash masalalari dolzarb bo’lib qolmoqda.

Fuqarolik tushunchasi jamiyatning hozirgi davrigacha, ya’ni huquqiy davlat tomon rivojlanishida katta yo’lni bosib o’tdi. U jamiyatning demokratik rivojlanishida qo’lga kiritilgan ulkan yutuqlardan biri. Fuqarolik tushunchasi qadimiy Yunonistonda va Rimda mavjud bo’lsada, asosan feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o’ta boshlaganda, hozirgi shaklda paydo bo’la boshladi va ilk bor “shaharlik” (frantsuzcha “situyayyan”, inglizcha “sitezen”, ruscha “gorojanin-grajdanin”) degan ma’nolarni anglatgan.

“Fuqarolik” atamasi “shahar” va “shaharlik” so’zlaridan kelib chiqqan. Ingliz tilida – “city”, - “cityzenship”. Nemis tilida “burger”- faqat fuqaro emas balki shaharda yashovchi hamdir. Ushbu atamaning izohi ilk respublikalar o’zini-o’zi boshqaruvchi shaharlarning tajribalarini o’zlashtirib olganlaridan bo’lsa kerak. Hozirgi kunga kelib rasmiy hujjatlarda fuqarolikni ifodalash uchun boshqa atamadan foydalaniladi: “nationality” (ing), “nationalite”(frants), “nasionlita”(ital). Bu davlatga tegishlilik ma’nosini beradi. E’tiborni shunga qaratmoq lozimki, “nation” atamasi kelib chiqishiga ko’ra “millat” degan ma’noni ifoda etadigan hozirgi kundagi kabi fuqarolikdan tashqari “tegishlilik”, “tobelik” (“poddanstvo”) atamalari ishlatiladi.

Ilk bor “fuqaro” atamasi Frantsuz revolyutsiyasining 1799-yildagi “Inson va Fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”da bayon etilgan¹. 18-asrda Buyuk frantsuz inqilobi

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik .Mas’ul muharrir: A.X.Saidov-T.:TDYUI, 2005,-480-b. 119-bet.

davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a'zolari — “fuqarolar” tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlarini bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar¹. Ushbu davrdan boshlab “fuqaro” tushunchasi ozod va erkin shaxs ma'nosida qo'llanilib, halqaro huquq normalarida “grajdanin” termini bilan yuritildi².

Fuqarolik tushunchasi respublika boshqaruv shakli mavjud bo'lgan davlatlarga xosdir. Monarxiya boshqaruv shakli mavjud bo'lgan davlatlar uchun “tob'e” tushunchasi mavjud. “Fuqaro” va “tob'e” lik tushunchasi nazariy jihatdan insonning ikki holatini belgilab beradi. Fuqarolar – ozod, mamlakat - respublika boshqaruv shaklidagi davlatlardagi erkin shaxslar bo'lib, o'zlarini har tomonlama ozod kishilar deb hisoblaydilar. Tob'e shaxs - boshqa bir shaxsga, monarxga tob'e bo'lib, uning xohish-irodasiga qarshi chiqa olmaydi. Tarixda ozodlik uchun kurashlar, bir shaxs xohish-irodasiga qarshi shohlar, qirollar, imperatorlarga qarshi kurash bilan bog'liq bo'lgan va ular haqiqiy demokratik boshqaruv deb, respublika boshqaruv tuzumini yaratish uchun kurash olib borganlar. Shu tariqa ular fuqarolik olish uchun tob'elikdan voz kechganlar. Shunday qilib, respublika boshqaruv shaklidagi davlatlarda “fuqarolik” tushunchasi monarxiya boshqaruv shaklidagi davlatlarda “tob'elik” tushunchasi mavjud.

“Fuqaro” va “fuqarolik” tushunchasiga huquqshunos olimlarimizning asarlarida, ilmiy ishlarida va boshqa adabiyotlarda bir qator ta'riflar berilgan bo'lib, quyida ulardan bir nechtasini keltiramiz.

Birinchi ta'rif: “fuqarolik deganda, insonning huquqiy yoki siyosiy-huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarini davlat ichida va uning tashqarisida qo'llanishi tushuniladi”³.

Ikkinchi ta'rif : “fuqarolik - shaxsning aniq bir davlatga siyosiy va huquqiy

¹ O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2005, - 704- b. 350-bet.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O'zbekiston» 2008, 109-bet.

³ U. Tadjixanov, X. Odilqoriev, A. Saidov O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., «Sharq» 2001, - 752- b. 340-bet.

A. Saidov Inson huquqari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik.-T.: 2004, 271-bet

mansubligi”¹.

Uchinchi ta’rif : “fuqarolik deganda, jismoniy shaxsning ma’lum bir davlat bilan mustahkam huquqiy bog’lanishiga aytiladi”².

To’rtinchi ta’rif: “fuqarolik - shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasi; bu aloqa shaxs va davlatning o’zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi”³;

Beshinchi ta’rif : “fuqarolik - shaxsning muayyan davlat bilan mustahkam, uzviy siyosiy-huquqiy munosabatini anglatuvchi tushunchadir”⁴.

Demak, yuqorida fuqarolik tushunchasiga keltirilgan ta’riflardan ko’rinib turibdiki, fuqarolik tushunchasi shaxsning ma’lum bir davlat bilan mustahkam huquqiy bog’lanishini, shaxsning muayyan bir davlatga siyosiy-huquqiy mansubligini, shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini aks ettiruvchi huquqiy tushunchadir.

“Fuqaro” - muayyan davlatga (konstitutsiyaviy va xalqaro huquqda) huquqiy asosda tegishli bo’lgan shaxs⁵. “Fuqaro” tushunchasiga insonning huquqiy holatini belgilovchi yuridik atama sifatida qaraladi. Insonlarning huquqiy holatidagi farqlar uning fuqarolikka ega yoki fuqarolikka ega emasligi, chet el fuqarosi ekanligi, ko’p fuqarolikka egalik kabi holatlar bilan izohlanadi. Bu holat har bir davlatning milliy qonunchiligida, ya’ni ularning tarixiy rivojlanish xususiyatlari, milliy an’analari, urf-odatlar va boshqa omillardan kelib chiqib, o’ziga xos tarzda ifoda etilgan.⁶

Davlat va fuqaro o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik, avvalambor, kishilik jamiyatining rivojlanishi zaminida yuzaga keldi. Insonlarning o’z huquq va erkinliklari borasidagi kurashi oqibatida fuqarolik g’oyasi paydo bo’ldi va bugungi kunga kelib ham fuqarolikka oid maqom bilan bog’liq munosabatlar dolzarb hisoblanib, davlat va jamiyat darajasida muhokama qilib kelinadi.

¹ Yuridik entsiklopediya/yuridik fanlar doktori, professor U. Tadjixanov umumiy tahriri ostida. – T.: «Sharq» 2001, - 656-b. 493-bet.

² O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik .Mas’ul muharrir: A.X.Saidov-T.:TDYUI, 2005, -480. 119-bet.

³ O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, T.: Davlat ilmiy nashriyoti 2005, -704-b. 350-bet.

⁴ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O’zbekiston» 2008, 109-bet.

⁵ Yuridik entsiklopediya/yuridik fanlar doktori, professor U. Tadjixanov umumiy tahriri ostida. – T.: «Sharq» 2001, - 656-b. 490-bet.

⁶ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O’zbekiston» 2008, 111-bet.

Fuqarolik maqomi asosida davlat va shaxs munosabatlarining mohiyati ochib beriladi. Fuqarolik maqomiga ega bo'lgan shaxslar davlat bilan muayyan huquq va burchlar ila uzviy, mustahkam munosabat o'rnatar ekan ushbu munosabatlarda har ikki tomon uchun manfaatlar uyg'unligi tan olinadi. Bugungi kunda ham ushbu munosabatlar xalqaro miqyosda tobora murakkab tus olmoqdaki, bunga misol qilib, mamlakat tashqarisida ham davlatlar tomonidan o'z fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalarni keltirish mumkin. Shunday ekan, fuqarolik institutini o'rganish o'zining dolzarbligini va ahamiyatini yo'qotmaydi.

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy - huquqiy aloqasini belgilaydi hamda bu aloqa ularning o'zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi.

Ushbu munosabatlar Konstitutsiya va qonunlar asosida huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra davlat va shaxs o'zaro ma'lum huquq hamda majburiyatlarni o'z zimmlariga oladi. Davlat va shaxsning o'zaro manfaatlaridan kelib chiquvchi ushbu munosabat, bir tomondan, ittifoq xarakteriga ega, ikkinchidan, zaruriy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, har ikki tomonning ham manfaatlarini qamrab oladi.

Davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarda eng ko'p namoyon bo'ladigan holat fuqarolik maqomi bilan izohlanadi. Muayyan davlatning o'z fuqaroligiga ega bo'lgan shaxsga nisbatan munosabati o'zga davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan munosabatidan farq qiladi. Ya'ni har bir davlat shu davlat fuqaroligiga ega shaxslar uchun ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlarida ma'lum huquq va erkinliklarning mavjudligini e'tirof etadi. Shu bilan birga davlat o'zining shakllanishi va faoliyatini amalga oshirish borasidagi barcha harakatlarida o'z fuqarolarining bevosita yoki bilvosita ishtirokini yoqlab chiqadi. Bu holatda chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtiroki maqsadga muvofiq, deb topilmaydi. Davlat hokimiyati faqat o'z fuqaroligiga tegishli shaxslardan tashkil topadi.

Davlat yurisdiksiyasi faqat o'z fuqaroligiga mansub shaxslarga nisbatangina to'liq joriy etiladi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan kafolatlanadi, ya'ni davlat o'z fuqaroligiga mansub shaxslarning himoyachisi sifatida may-

donga chiqadi.

Fuqarolar ham, o'z navbatida, shu mamlakat davlat hokimiyati tomonidan belgilangan tartib-qoidalarga bo'ysunadi, uning faoliyatida faol ishtirok etishga, davlat hokimiyatini hurmat qilishga, uning qonuniy talablarini bajarishga mas'uldir.

Davlat o'z fuqaroligiga ega shaxslarni huquqiy himoya qilish bilan birga, fuqarolar ham, o'z navbatida, shu davlatning mustaqilligini, hududiy yaxlitligini hamda milliy manfaatlarini himoya qilishlari lozim.

Fuqarolik tushunchasi orqali davlat tushunchasiga ham oydinlik kiritiladi. Davlatning davlat deb tan olinishida fuqarolik instituti muhim rol o'ynaydi. Davlatning eng muhim belgilaridan biri — unga mansub bo'lgan shaxslar, ya'ni fuqarolik maqomiga ega insonlarning mavjudligidir. Davlat hokimiyatining asosiy maqsadi va faoliyatining mazmuni jamiyat va fuqarolar manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo'lib, davlat ular oldida mas'uldir.

Shu munosabat bilan dunyo hamjamiyatidan o'zining munosib o'rnini egalashga harakat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi milliy huquq tizimini bunyod etar ekan, milliy davlatchilik ramzlaridan biri bo'lgan fuqarolik institutiga alohida e'tibor qaratdi. Fuqarolikning huquqiy asoslarini yaratishda asosiy e'tibor, albatta, xalqaro huquq tomonidan umum e'tirof etilgan tamoyillarga qaratilgan. Dunyoviy, huquqiy, demokratik tamoyillarga asoslangan davlat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etish mazmunida, uning manbai va faol a'zosi hisoblangan fuqarolarning huquq va erkinligi, manfaati, insoniy qadriyatlari ustuvorligini belgilash va ta'minlash bosh qoida sifatida mamlakatimiz tomonidan e'tirof etildi¹.

Fuqarolik holati bilan bog'liq muammolar echimini topishga qaratilgan huquqiy asoslarning yaratilishida mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimovning siyosiy-huquqiy qarashlarining ta'siri va ahamiyati alohida tilga olinadi. Ayniqsa, uning yagona fuqarolik printsipini o'rnatishga daxldor bo'lgan quyidagi qoidasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi: «Umum e'tirof etilgan qoidaga ko'ra, har bir shaxs faqat bir davlatning fuqarosi bo'la oladi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, ba'zi bir davlatlarning ayrim siyosiy rahbarlari muayyan bir millat vakillariga ikki fuqarolik

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: « O'zbekiston » 2008, 107-bet

huquqini berish masalasini olg'a surmoqdalar. Bunda ayrim millatga mansub shaxslarning huquqlarini to'laroq himoya etishni ko'zda tutmoqdalar. Aslida ularning maqsadi boshqa — bizning ichki ishlarimizga aralashish, bizning mustaqilligimizni cheklash, bizga shu yo'l bilan yana tazyiq o'tkazishga urinishdir»¹.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslari quyidagi hujjatlar bilan mustahkamlangan. 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun shular jumlasidandir.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning 15-moddasida «O'zbekiston Respublikasi hududida Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millatidan, elatidan, ijtimoiy kelib chiqishidan, qaysi dinga mansubligidan va e'tiqodidan qat'i nazar, bir xil fuqarolik huquqlariga egadirlar, respublika Konstitutsiyasi hamda uning qonunlari himoyasida bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari respublikadan tashqarida ham O'zbekiston Respublikasining himoyasida bo'ladilar»², degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasining butun xududida yagona fuqarolik o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

¹ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.// Bizan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom.-T.: O'zbekiston, 1996. -380-b. 95-bet.

² «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991 y., 11-son, 246-modda).

Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi»¹.

Yagona fuqarolikning mazmuni shundaki, O'zbekiston fuqaroligiga ega shaxslarning boshqa davlatlar fuqaroligiga egaligi yoki ularning ikki fuqaroligi yoxud ko'p fuqaroligi davlatimiz hokimiyati tomonidan tan olinmaydi va shu ma'nodagi huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi. O'zbekiston fuqaroligiga ega shaxs faqat O'zbekiston fuqarosi, deb hisoblanadi, mabodo uning boshqa davlat fuqaroligini olanligi ma'lum bo'lib qolsa, bu holat unga nisbatan O'zbekiston fuqaroligining to'xtatilishiga asos bo'lishi mumkin.

Yagona fuqarolik tamoyilining o'rnatilishi milliy davlatchilikni mustahkamlashga xizmat qilib, O'zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan harakat, deb tan olinadi. Chunki ikki fuqarolik hamda ko'p fuqarolikka oid masalalar davlatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir etishi mumkin, bundan tashqari davlat va jamiyat oldidagi mas'ullik majburiyat masalalari, masalan, soliq masalasi, harbiy majburiyat, vatanga sodiqlik kabi ko'plab holatlar bo'yicha tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganligidan qat'i nazar, hamma fuqarolar uchun tengligi tamoyili dunyo hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan g'oya sifatida bosh qomusimizda e'tirof etilgan. Demak, O'zbekiston fuqaroligini olgan har bir fuqaro shu mamlakat fuqarolariga tegishli barcha siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquq va erkinliklardan foydalanishda teng huquqlidir. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida «har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqga ega» mazmunidagi qoida mustahkamlangan. Ammo eng demokratik mamlakatlardan biri hisoblangan AQSH da mamlakat prezidentligiga nomzodlik huquqi faqat tug'ilishiga ko'ra Amerika Qo'shma Shtatlari fuqaroligiga ega shaxslarga berilishi AQSH Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan.

Demak, ushbu tamoyilning milliy huquqimizdan o'rin olishi, bizning Konstitut-

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: «O'zbekiston» 2012, -40-b. 7-bet.

siyamizda xalqaro huquq normalarining to'liq aks etganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir necha joyida inson va fuqarolarning huquqiy maqomini belgilovchi normalar mustahkamlab qo'yilgani ham fuqarolik institutiga davlat tomonidan o'ta jiddiy ahamiyat berilganini ko'rsatadi. Zero, har bir demokratik davlat faoliyatining mazmuni, avvalo, o'z fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Fuqarolik holatiga tegishli asosiy tamoyillarning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi oqibatida fuqarolarning davlat bilan mustahkam xuquqiy munosabatiga asos solindi. Konstitutsiyamizda yagona fuqarolik barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, barcha insonlarning teng huquqliligi, davlat o'z fuqarolarining himoyachisi ekanligi kabi tamoyillar o'rnatilganki, bu, o'z navbatida, fuqarolarning davlat hokimiyati bilan bo'ladigan munosabatlarida o'zaro hurmat va mas'uliyat bilan yondashuvini taqozo etadi.

O'zbekistonda milliy va xalqaro huquqiy normalar zaminida «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonun ham qabul qilindi¹. Mazkur qonunda fuqarolikka oid masalalarga juda katta mas'uliyat bilan yondashilganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning negizida fuqarolik huquqiy holatiga doir masalalarning to'g'ri va ijobiy hal etilgani yotadi.

Milliy qonunchiligimizda fuqarolik holatini tan olish faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslar doirasi, fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunda batafsil belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish asoslari va tartibi xalqaro huquq normalari talabi darajasida ifoda etilgan.

Jumladan, mazkur qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish tartibi, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilish tartibi, ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda va farzandlikka olinganda bolalarning fuqaroligi masalasi, fuqarolik

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

to'g'risidagi ishlarni yurituvchi respublika davlat organlari va ular vakolatlarining doirasi, fuqarolik masalalariga oid ariza va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibi, mazkur masalaga oid qarorlarning ijrosi, mansabdor shaxslarning fuqarolik masalalariga oid noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibi, shuningdek, mamlakatimizning fuqarolik masalalari bo'yicha xalqaro va davlatlararo shartnomalarda ko'zda tutilgan munosabatlari tartibga solingan¹.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunining 1-moddasiga binoan har bir kishining O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish huquqi e'tirof etilgan, ya'ni «hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas»² degan tamoyil mustahkamlangan. Ushbu tamoyil xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidasi asosida fuqarolik institutining ahamiyatini oshirish barobarida bejiz mustahkamlab qo'yilmagan³.

Fuqarolik institutiga tegishli yana bir asosiy qoidalardan sanalgan «Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi»⁴ mazmunidagi tamoyil konstitutsiyaviy tuzumni va millatlararo do'stlikni mustahkamlashda katta ma'noga ega.

Uning mazmunidan, birinchi, Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat suvereniteti, ikkinchi, Qoraqalpog'iston fuqaroligi maqomi e'tirof etilganligini anglaymiz.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik masalasi mustaqillik va davlat suvereniteti e'lon qilinishi bilan, suveren davlat belgilaridan biri - fuqarolik institutining huquqiy asoslarini zudlik bilan mustahkamlash zaruratini o'zida ifodalaydi. O'zbekiston fuqaroligi huquqiy maqomiga kimlar ega ekanini alohida tamoyil asosida belgilab qo'yish zarurati tufayli «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik» qoidasi o'z aksini topdi. Ushbu qoidaga muvofiq, quyidagi shaxslar:

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O'zbekiston» 2008, 115-bet.

² «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O'zbekiston» 2008, 112-bet.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: «O'zbekiston» 2012, -40- b, 7-bet.

“kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, mashg'ulotining turi va sajiyasidan qat'iy nazar, ushbu Qonun kuchga kirgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar;

davlat yo'llanmasi bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasining xududida tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlatlarning fuqarosi bo'lmasalar va ushbu qonun kuchga kirganidan keyin kechi bilan bir yil ichida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan bo'lsalar;

ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'ladilar”¹.

Nikohdan o'tishda va uni bekor qilishda fuqarolikning saqlanib qolishi fuqarolik institutining tamoyili sifatida «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasida o'z aksini topgan. Ma'lumki, oila qurish va nikohdan o'tish masalalariga oid xalqaro umum e'tirof etilgan qoidalar shaxslarning bu sohadagi huquq va erkinliklarini kafolatlaydi hamda rag'batlantiradi². 1966-yil 19-dekabrda “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi xalqaro paktning 23-moddasi oila, erkak va ayol nikohi va uni tuzishda hamda bekor qilinayotgan vaqtda er-xotin huquqi va majburiyati to'g'risidagi qoidalarini o'zida ifodalaydi³.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosini chet davlatga topshirishga yo'l qo'ymaslik tamoyili ushbu qonunning 9-moddasida mustahkamlab qo'yilgan⁴. O'zbekiston fuqarolarini chet davlatga topshirishga (ekstraditsiya)⁵ yo'l qo'ymaslik tamoyili, mazmuran o'zga davlatlarning xududida, ularning qonunlarida belgilangan jinoyatlarni sodir

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O'zbekiston» 2008, 122-bet.

³ Международный пакт о гражданских и политических правах // Узбекистан и международные договоры по правам человека (Сборник международных договоров по правам человека, к которым присоединилась Республика Узбекистан).- Т.: Адалат, 1998.

⁴ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

⁵ Ekstraditsiya-(lotin. *ex traditio*) – bir davlatning boshqa (chet el) davlati o'z fuqarosini ixtiyoriga topshirishi.

etgan respublikamiz fuqarolariga nisbatan bildirgan talabi asosida vujudga kelgan faoliyatiga berilgan rad javobni anglatadi. Faqat O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan halqaro shartnomalarda boshqacha tartib belgilanmagan holatlar bo'yicha ushbu tamoyil amalda bo'ladi¹.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining chet davlat fuqaroligiga mansubligini tan olmaslik tamoyili ushbu qonunning 10-moddasida e'tirof etilgan². Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek, "Ikki davlat fuqaroligiga mansublik achinarli holdir. Bu bewatanlik bilan barobardir.

Mamlakatimizda muayyan kishilar yoki ayrim millat yoxud etnik guruhlarining ikki davlat fuqarosi bo'lishi uchun na siyosiy, na huquqiy asos bor. Shuning uchun ham, "Fuqarolik to'g'risidagi"gi qonunimizga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan shaxsning biron bir chet davlat fuqaroligiga mansubligi tan olinmaydi. Bu qoida 1930 yilgi Gaaga konventsiyasida mustahkamlangan ikki fuqarolikni tan olmaslik xalqaro tamoyiliga ham to'la mos keladi³. Ikki fuqarolikni tan olmaslik faqat O'zbekiston qonunchiligida qayd etilgan emas. Dunyoning juda ko'p mamlakatlari, juladan qator Yevropa davlatlari va AQSHda ham ikki fuqarolik tan olinmaydi⁴.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holatiga aniqlik kiritish maqsadida, kimlar bunday shaxslar ekanligini ushbu qonunning 11-moddasidagi tamoyil belgilab bergan⁵. Ushbu tamoyil O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va o'zining chet el fuqaroligiga mansubligini isbotlovchi dalillarga ega bo'lmagan shaxslar fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, deb hisoblanishini bildiradi.

Demak, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sari olg'a qadam tashlayotgan mustaqil davlatimizda fuqarolik holatining huquqiy asoslari va asosiy tamoyillari mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq yaratib bo'lingan. Fuqarolik

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O'zbekiston» 2008, 123-bet

² «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

³ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.// Bizan ozod va obod vatan qolsin. T.2.-T.: O'zbekiston, 1996, - 380-b. 96-bet.

⁴ "Vatandosh" gazetasining www.vatandosh.uz saytidan olindi. 12.05.2012 yil holatiga.

⁵ «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

holatiga tegishli asosiy tamoyillarning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi natijasida davlat bilan fuqarolarning mustahkam huquqiy munosabatiga asos solindi. Yagona fuqarolikning o'rnatilganligi, teng fuqarolik, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanishi, davlat o'z fuqarolarining himoyachisi ekanligi, nikohdan o'tishda va uni bekor qilishda fuqarolikning saqlanib qolishi, fuqaroni chet davlatga topshirishga yo'l qo'ymaslik, chet davlat fuqaroligiga mansublikning tan olmaslik kabi tamoyillarning mustahkamlab qo'yilganligi buning yaqqol dalilidir.

1.2-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini o'zgartirish asoslari.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunining 1-moddasiga binoan har bir kishining O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish huquqi va «hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas» degan tamoyil mustahkamlangan¹. Ushbu tamoyil xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidasi asosida fuqarolik institutining ahamiyatini oshirish barobarida bejiz mustahkamlab qo'yilmagan. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish asoslari har bir inson uchun tenglik asosida belgilangan. Bunga qo'shimcha O'zbekiston Respublikasida fuqarolikni olish tartibi nihoyatda liberal tarzda belgilanganligini eslatib o'tamiz².

Umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalarida davlat xududidagi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni fuqarolikka olishga undovchi qoidalar mavjud. Shuning uchun ham har bir davlatda albatta huquqiy tartibga solinishi zarur bo'lgan fuqarolik institutining tarkibiy qismi - fuqarolikka ega bo'lish va uni yuqotish asoslarining qonun darajasiga ko'tarilishi o'ta muhim hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo'lishdan har bir inson manfaatdor bo'lganidek, fuqarolik institutini rivojlantirishdan ham har bir davlat

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O'zbekiston» 2008, 112-bet.

manfaat ko'radi. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari qonun bilan belgilanishi tamoyili Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan¹. Fuqarolikni olish va o'zgartirish asoslari har bir davlatning ichki qonunchiligi — Konstitutsiyalar, fuqarolik to'g'risidagi qonunlar va boshqa qonunosti aktlarida mustahkamlab qo'yiladi.

Jumladan, «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasida shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish asoslari quyidagicha belgilangan:

- tug'ilganda;
- fuqarolikka qabul qilinishi natijasida;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha;
- qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha².

Tug'ilish asosida O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 13-16 - moddalarida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

- 1) ota-onasi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan bolalarning fuqaroligi (13-modda);
- 2) onasi yoki otasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolalarning fuqaroligi (14-modda);
- 3) fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bolalarining O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi (15-modda);
- 4) ota-onasi noma'lum bo'lgan bolalarning fuqaroligi (16-modda).

Tug'ilgan paytida ota-onasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bola, O'zbekiston Respublikasi hududida yoxud O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi³.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O'zbekiston» 2008, 115-bet.

² «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

³ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 13- moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan quyidagi hollarda bola O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi:

1) agar u O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bo'lsa;

2) agar u O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug'ilgan bo'lsa-yu, ota-onasi yoki ularning biri shu vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsa.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan bo'lsa, agar bu vaqtda ota-ona O'zbekistondan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bolaning fuqaroligi ota-onaning yozma tarzda ifodalan-gan kelishuvi bilan belgilanadi.

Ota-onasidan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi yo'q shaxs bo'lgan yoxud noma'lum bo'lgan taqdirda, bola qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Onasining fuqaroligi bo'lmagan bolaning otasi belgilanib, u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa, 14 yoshga etmagan bola, qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.¹

Fuqaroligi bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bolasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.²

Ota-onasi noma'lum bo'lgan va O'zbekiston hududida yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.³

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida fuqarolikni olish shartlari «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 17-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra: « Chet el fuqarolari va fuqaroli-

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 14- moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

² O'sha qonun. 15- modda.

³ O'sha qonun. 16- modda.

gi bo'lmagan shaxslar o'z iltimosnomalariga ko'ra ushbu Qonunga binoan kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish shartlari quyidagilardan iborat:

1) chet el fuqaroligidan voz kechish;

2) so'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik.

Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslarga, basharti ular shu erda tug'ilgan va hech bo'lmasa ota-onasidan biri, buvasi yoki buvisi O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, taalluqli bo'lmaydi;

3) qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olish va bajarish.

Ushbu moddaning 1, 2 va 3-bandlarida qayd etib o'tilgan talablar alohida hollardagina O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida katta yutuqlari bo'lgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yoxud malakaga ega bo'lgan ayrim shaxslarga nisbatan hisobga olinmasligi mumkin.

Agar shaxs:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik ishlatib o'zgartirishni yoqlab chiqayotgan bo'lsa;

faoliyati O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy printsiplariga zid bo'lgan partiyalar va o'zga tashkilotlarga a'zo bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan xatti-harakatlar uchun ozodlikdan mahrum etilgan va jazoni o'tayotgan bo'lsa, uni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnomasi rad etiladi»¹.

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 17- moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

O'zbekiston Respublikasida yashayotgan shaxslar tomonidan "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish bo'yicha quyidagi hujjatlar: iltimosnoma; so'rov arizasi; chet el fuqaroligidan chiqqanligini tasdiqlovchi hujjat (Fuqaroligi yo'q shaxslardan tashqari); tarjimai xol; qonuniy yashash manbai haqida guvohlik beruvchi hujjat (ish joyidan o'rtacha ish haqi haqidagi yoki uning o'rnini bosadigan nafaqa, yordam puli, dividendlar va boshqa yashash manbai haqidagi ma'lumotnoma); turar joyidan oilangiz haqidagi guvohnoma; davlat boji to'langanligi haqdagi hujjat; fotosurat «3.5x4.5»-4 dona; tug'ilganlik haqida guvohnoma; nikoh tuzilganligi yoki bekor qilinganligi to'g'risidagi guvohnoma nushasi; mehnat daftarchasidan nusha; uy daftarchasidan nusha.

So'rov anketasining 20-bandida o'zi bilan birga voyaga yetmagan farzandlarini fuqarolikka qabul qilishni so'rasa, ularning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasidan nusha hamda 14-18 yoshgacha bo'lgan farzandlarining notarial tasdiqlangan rozilik xati"¹ taqdim etilishi lozim.

Prezidentimiz I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzasida shunday degan edi: "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganidan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir. Fuqarolik har bir shaxsga respublikaning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy turmushida mumkin qadar to'laroq ishtirok etish imkonini beradi. Chunonchi, shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Shuningdek, u ma'lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki, O'zbekiston davlati ham fuqarolarning manfaatlari va erkinliklarini Respublika hududida va uning tashqarisida himoya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi»².

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilingan «chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'zlarining shaxsiy, mulkiy, oilaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, mehnat qilish, dam olish, salomatligini mustahkamlash,

¹ O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining <http://www.mvd.uz> saytidan olindi.

² Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T.: «Sharq», 1993, 9-bet

malakali tibbiy yordam olish, ijtimoiy ta'minot olish, uy-joyli bo'lish, bilim olish, tarixiy, madaniy yodgorliklardan foydalanish kabi huquq va erkinliklaridan ham keng foydalanadilar. Ularga mulkdorlik, fan, adabiyot, san'at, ixtiro, ratsionalizatorlik huquqlari berilgan. Shuningdek, ular vijdon erkinligi, tijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalariga birlashish huquqidan ham foydalanishlari mumkin. Bu huquq va erkinliklarga to'sqinlik qilingan taqdirda ular ma'muriy va sud organlariga himoya uchun murojaat etish huquqiga egadirlar»¹. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslarga insonlarning tabiiy huquq va erkinliklari bilan birga siyosiy huquq va erkinliklar ham tegishli ekanligi e'tirof etilgan².

O'zbekiston Respublikasida fuqarolikni o'zgartirish yoki o'zgartirmaslik har bir shaxsning huquqi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunining 1-moddasiga binoan hech kim «fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas»³.

O'zbekiston milliy qonunchiligida fuqarolikni o'zgarishi bilan bog'liq qoidalar mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda va farzandlikka olinganda bolalarning fuqaroligi o'zining qat'iy asoslariga ega. «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning IV-bobi «Ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda va farzandlikka olinganda bolalarning fuqaroligi» mustahkamlab berilgan va u quyidagilardan iborat:

1) ota-onalarining fuqaroligi o'zgargan taqdirda bolalar fuqaroligining o'zgariishi (22-modda);

2) vasiylik yoki homiylikka olingan bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolishi (23-modda);

3) ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan taqdirda bolalarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi (24-modda);

¹ U. Tadjixanov, X. Odilqoriev, A. Saidov O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., «Sharq» 2001, -752-b. 343-bet.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: «O'zbekiston» 2008, 111-bet.

³ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

4) ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqqan taqdirda bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolishi (25-modda);

5) bola farzandlikka olingan taqdirda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi (26-modda);

6) farzandlikka olingan taqdirda bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolishi (27-modda);

7) bolalarning fuqaroligini o'zgartirish chog'ida ular rozilik berishining zarurligi (28-modda).

Ota-onalarining fuqaroligi o'zgarganligi natijasida ularning har ikkalasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga o'tganida yoki har ikkalasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqqanida, o'z navbatida ularning 14 yoshga to'lmagan bolalarining fuqaroligi ham o'zgaradi.

Agar bolaning ota-onasidan biri ma'lum bo'lsa, ana shu ota yoki onaning fuqaroligi o'zgarganida 14 yoshga to'lmagan bolaning fuqaroligi ham tegishli suratda o'zgaradi¹.

O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi bolaning ota-onasi yoki yolg'iz otasi yo bo'lmasa onasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsalar va ayni vaqtda ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vasiylikka yoki homiylikka olgan bolaning tarbiyasida ishtirok etmasalar, ota-ona, vasiy yoki homiyniing iltimosiga ko'ra bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa chet el fuqarosi bo'lib qolaversa, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olayotgan ota yoki onaning iltimosnomasiga ko'ra bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi mumkin.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib qolaversa, O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib qolaversa, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olayotgan ota yoki onaning iltimosnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi mumkin¹.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsa, boshqasi esa O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lib qolaversa, bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqayotgan ota yoki onaning iltimosnomasiga ko'ra bunday bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga ruxsat etilishi mumkin².

Chet el fuqarosi yoxud fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olinayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Chet el fuqarosi bo'lib, biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan, biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Chet el fuqarosi bo'lib, biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi chet el fuqarosi bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola farzandlikka oluvchilarning kelishuviga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi³.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, chet el fuqarolari tomonidan farzandlikka olingan yoki biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi chet el fuqarosi bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olingan bola O'zbekiston Respub-

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 24-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

² O'sha qonun. 25-modda.

³ O'sha qonun. 26-modda.

likasi fuqaroligini saqlab qoladi. Farzandlikka oluvchilarning iltimosnomasiga ko'ra bunday bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga ruxsat berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, bolani fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan farzandlikka olingan yoki biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olingan bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi¹.

Ota-onalarining fuqaroligi o'zgargan taqdirda, shuningdek bolalar farzandlikka olingan taqdirda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning fuqaroligi «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 34-moddasida ko'zda tutilgan tartibda faqat bolalarning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin².

Demak, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan fuqarolikka qabul qilingandan so'nggina davlat yurisdiksiyasi³ to'liq joriy etiladi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan kafolatlanadi, ya'ni davlat o'z fuqaroligiga mansub shaxslarning himoyachisi sifatida maydonga chiqadi. Shaxs fuqaroligining o'zgarishi natijasida davlat fuqarolariga tegishli bo'lgan huquqlar va majburiyatlardan hamda davlatning himoyasi va homiyligi o'z-o'zidan kuchini yo'qotadi.

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 27-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

² O'sha qonun. 28-modda.

³ Lotincha *jurisdictio* – sud muhokamasi; sud okrugi ma'nolarini anglatadi. Odatda, kengroq ma'noda davlat huquqiy faoliyatining doirasi yoki, boshqacha qilib aytganda, ushbu faoliyatning sohasi va predmeti (hududiy doirasi) ham yurisdiksiya deb ataladi.

1.3-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi va tiklash asoslari.

«O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunining III-bobida «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi asoslari» mustahkamlab qo'yilgan.

«O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunining 19-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida;
- 2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish oqibatida;
- 3) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;
- 4) ushbu Qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqaroligining to'xtalishiga sabab bo'ladi¹.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi Qonunda belgilangan tartibda shaxsning iltimosnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat etiladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs davlat oldidagi majburiyatlarini yoki fuqarolarning yoxud davlat va jamoat tashkilotlarining muhim manfaatlari bilan bog'liq mulkiy majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi rad etilishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa yoki shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsiz-

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunining 19-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

ligi manfaatlariga zid bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga yo'l qo'yilmaydi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizomning III-bo'limi «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish haqidagi materiallarni rasmiylashtirish va ko'rib chiqish tartibi»ni belgilaydi. Mazkur Nizom III (a) bo'limida Respublika hududida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi tartibi to'g'risidagi qoidalar mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra:

1. O'zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti nomiga ariza beradi va uni doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar organlariga taqdim etadi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

ariza-so'rovnoma — 2 nusxada;

tarjimai hol 2 nusxada;

uchta fotosurat;

yashash joyidan belgilangan shakldagi ma'lumotnoma 2 nusxada;

ish yoki o'qish joyidan, ishlamaydiganlar esa faqat yashash joyidan 2 nusxada ma'lumotnoma taqdim etadi, unda mazkur shaxs davlat oldidagi hamma majburiyatlarini bajarganligi yoki fuqarolarning, davlat, kooperativ yoxud boshqa jamoat tashkilotlarining muhim manfaatlari bog'liq bo'lgan mulkiy majburiyatlari bor-yo'qligi ko'rsatilgan bo'lib, tuman hokimligi tomonidan tasdiqlanishi lozim; chaqiriq yoshidagi shaxsni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonuniga muvofiq haqiqiy harbiy xizmatni o'tashdan ozod qilish to'g'risida harbiy komissariatdan ma'lumotnoma;

davlat poshlinasi to'langanligi yoki uni to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi hujjat.

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 20-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

2. Arizalar, so'rovnoma va tarjimai hollarning barcha nusxalari arizachi tomonidan mazkur Nizom ushbu bo'limining 5-bandida ko'rsatilgan talablarga rioya etilgan holda tuzilishi kerak.

3. Agarda arizachining O'zbekiston Respublikasida eri (xotini), shuningdek o'z qaramog'idagi shaxslar bo'lsa, u ana shu shaxslarning unga nisbatan mulkiy yoki boshqa da'volari yo'qligi to'g'risida notarius tomonidan tasdiqlangan yozma arizalarini taqdim etishi kerak.

4. 18 yoshga to'lmagan shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi to'g'risidagi ariza uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari tomonidan bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasining nusxasi bilan birga beriladi. Balog'atga etmaganlar 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lsa, ota-onalarning yoki boshqa qonuniy vakillarning arizasiga ularning notarius tomonidan tasdiqlangan yozma ravishdagi roziligini taqdim qilish zarur.

Zarur hollarda nikohni bekor qilish, ota-onalardan birining o'limi, farzand qilib olish, ota-onalik huquqlaridan mahrum etish, aliment to'lash to'g'risidagi hujjatlarining notarius tomonidan tasdiqlangan nusxalari taqdim etiladi.

Agar ota-onaning ikkalasi ham O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lib, ulardan biri respublika fuqaroligidan chiqsa va ayni vaqtda balog'atga etmagan bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishini iltimos qilsa, u holda bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga o'zining munosabati bildirilgan ota yoki onaning notarius tomonidan tasdiqlangan arizasi taqdim etiladi.

5. Rasmiylashtirilgan materiallarni arizachining doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlari organlari Qoraqalpog'iston Respublikasining Ichki ishlar vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklarining ichki ishlar boshqarmalariga yuboradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklarining ichki ishlar boshqarmalari O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi materiallar to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshiradilar, ikki nusxada ish yuritib, har bir iltimosnoma bo'yicha milliy xavfsizlik tegishli organlarining fikrini so'rab biladilar.

Ular yuzasidan materiallar va xulosalarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklarining ichki ishlar boshqarmalari O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligiga yuboradilar.

O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi fuqarolikdan chiqish to'g'risida tayyorlangan xulosalar bilan birga materiallarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari Komissiyasiga hamda respublikaning tegishli vakolatli organlari — Milliy xavfsizlik xizmati va Tashqi ishlar vazirligiga yuboradi, bu organlar fuqarolik masalalari Komissiyasiga faqat o'z xulosalarini yuborib, materiallarni esa O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligiga qaytaradilar¹.

Fuqarolik masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish paytida Komissiya ariza beruvchining dalillarini, taqdimnomaning mazmunini, davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining xulosalarini, boshqa hujjatlarni hamda tegishli tarzda rasmiylashtirilgan guvohlar ko'rsatmalarini o'rganadi. Komissiya har bir ariza yoki taqdimnoma yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritadi.

Fuqarolikning to'xtatilishi masalasi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmon chiqaradi. Agar farmonda boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, fuqarolikdagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqarilgan kundan kuchga kiradi. Fuqarolik masalasiga oid takroriy ariza, qoida tariqasida, shu masalaga oid avvalgi qarordan keyin bir yil o'tgach ko'rib chiqiladi. Ish uchun muhim bo'lgan hamda ariza beruvchiga ma'lum bo'lmagan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'lmagan vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda takroriy ariza ilgariroq ham ko'rib chiqilishi mumkin. Fuqarolikning to'xtatilishiga oid arizalar yoki taqdimnomalarni ko'rib chiqish muddati bir yildan oshmasligi kerak².

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizomning III (b) bo'limida xorijda doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi to'g'risidagi qoidalar belgilangan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

² <http://consul.mfa.uz> O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi Konsullik xizmati rasmiy saytidan olindi

O'zbekiston Respublikasining xorijda doimiy yashovchi fuqarosi O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ariza beradi. Bunda iltimos qiluvchining arizasi va zarur hujjatlar ro'y-xati mazkur Nizom II (b) bo'limining 1-bandida bayon etilgan talablarga muvofiq bo'lishi kerak, sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumotnoma bundan mustasno. Unga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqishni xohlovchi shaxs yashab turgan davlatda diplomatiya vakolatxonasi, konsullik muassasasi bo'lmagan taqdirda u O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligiga murojaat qiladi¹. Iltimosnoma ifodalangan ariza, arizachining ajnabiy fuqarolikni olganligi, tarjimai holiga doir ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tasdiqlagan shakldagi so'rovnomalarda uch nusxada bayon etiladi. Unga arizachining fotosuratlari ilova qilinadi. Arizachi arizani taqdim etilgan sanani ko'rsatib imzolaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar berilganda davlat boji to'lanadi. Davlat boji stavkalari to'g'risidagi qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarish to'g'risidagi arizalardan eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida davlat boji olinadi².

U savodsizligi yoki jismoniy kamchiliklari tufayli arizaga o'z qo'li bilan imzo cheka olmagan taqdirda, «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 34-moddasiga binoan uning iltimosiga ko'ra arizaga boshqa shaxs imzo chekishi mumkin va bu haqda konsullik muassasasi arizachi o'z qo'li bilan arizani imzolay olmaganligi sabablarini arizaga yozib qo'yadi.

Yuqorida ko'zda tutilgan barcha hujjatlarni arizachi topshirgan paytdan boshlab taqdimnoma ijro uchun qabul qilingan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish to'g'risida ariza beruvchi ota-onalar vaziyatga qarab o'z arizalarida bolasining O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolish to'g'risidagi asosli iltimosni bayon qilishlari mumkin.

Iltimosnomalar bo'yicha materiallar ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligidan albatta xulosa olgan holda mazkur Nizom II (b)

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

² <http://consul.mfa.uz> O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi Konsullik xizmati rasmiy saytidan olindi

bo'limining 4-bandida ko'rsatilgan tartibda ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Unga ko'ra: O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi shaxsning arizasini konsullik muassasasi barcha materiallar va o'z xulosasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligiga yuboradi. Tashqi ishlar vazirligi fuqarolik masalalariga oid arizalar yoki taqdimnomalar yuzasidan o'z xulosalarini hamda boshqa zarur hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari komissiyasiga yuboradilar. Komissiya Milliy xavfsizlik xizmatidan ham materiallar oladi¹. O'z navbatida Komissiya arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqish uchun takliflar kiritadi. Fuqarolikdan chiqarish masalasining eng oxirgi bosqichida arizani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqadi va arizachini fuqarolikdan chiqarish yoki arizani rad etish kabi bir to'xtamga kelib, farmon chiqaradi².

Fuqarolarimizning boshqa davlat, xususan AQSH yoki Kanada fuqaroligini qabul qilishi, ayni vaqtda ular O'zbekiston fuqaroligidan chiqdi degan, degan ma'noni anglatmaydi. Buni bilmagan ba'zi fuqarolarimiz "men Amerika fuqaroligini qabul qildim, shuning uchun O'zbekistonga borishim uchun viza olishim kerak", deb konsulxonaga murojat qiladilar. Bunday fuqarolarimizga yana bir bor eslatib o'tamiz – O'zbekiston fuqaroligidan chiqish faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida rasmiylashtiriladi. Shundan keyingina bu fuqaro xorijiy davlat fuqarosi sifatida tan olinishi mumkin³.

"O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi hollarda:

1) shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi natijasida;

2) agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmagan bo'lsa;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

² <http://consul.mfa.uz> O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi Konsullik xizmati rasmiy saytidan olindi

³ "Vatandosh" gazetasining www.vatandosh.uz saytidan olindi. 12.05.2012 yil holatiga.

3) agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shak-shubhasiz ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo'lsa"¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqqan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo'qotiladi. Fuqarolikning yo'qotilishi esa, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishiga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum bo'lish quyidagi hollarda fuqarolik to'g'risidagi Qonun asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan rasmiylashtiriladi:

1. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining ajnabiy davlat armiyasida harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmatiga, shuningdek, xorijiy davlatda politsiyaga, yustitsiya organlariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining o'zga organlariga ishga kirganligini tasdiqlovchi hujjatlar, yoxud boshqa ishonarli ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda.

Konsullik muassasalari materiallarni Tashqi ishlar vazirligiga yuboradilar, bu vazirlik O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Milliy Xavfsizlik xizmatidan xulosalar olib o'z xulosasi bilan materiallarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari Komissiyasiga taqdim etadi. Komissiya O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaror qabul qilishi uchun takliflar kiritadi.

2. Agarda chet elda doimiy yashovchi shaxs 5 yil mobaynida uzrli sabablarsiz konsullik muassasalarida fuqarolik hisobidan o'tmagan taqdirda konsullik muassasalari materiallarni Tashqi ishlar vazirligiga yuboradilar. Tashqi ishlar vazirligi o'z xulosasi bilan materiallarni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari Komissiasiga yuboradi. Komissiya taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqadi va O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaror qabul qilishi uchun taklif kiritadi.

5 yillik muddat to'g'risidagi qoida 16 yoshga etmagan shaxslarga taalluqli bo'lmaydi. Konsullik muassasasining rahbari O'zbekiston Respublikasining fuqarosi

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

o'z vaqtida konsullik hisobidan o'tmaganligi sabablari uzrli yoki uzrli emasligini vaziyatga qarab mustaqil baholaydi.

3. Mutlaqo yolg'on ma'lumotnomalar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olishga erishilganlik aniqlangan taqdirda mazkur shaxs haqiqatan ham O'zbekiston Respublikasining fuqarosi yoki fuqarosi emasligi to'g'risida ma'lumotlar yoinki arizalar tushgan chog'da ichki ishlar organlari yoxud konsullik muassasalari zarur tekshirish o'tkazadilar. Mutlaqo yolg'on ma'lumotnomalar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilish fakti aniqlangan hollarda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi yoki Tashqi ishlar vazirligi materiallarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari Komissiyasiga taqdim etadilar. Komissiya materiallarni ko'rib chiqadi va O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaror qabul qilishi uchun takliflar kiritadi.

4. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum bo'lish to'g'risidagi masalani shaxs buning sabablari va vaziyatlari to'g'risida ma'lum qilgandan keyingina ko'rib chiqish mumkin, — uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan mahrum bo'lishi to'g'risidagi qaror ana shu sabab va vaziyatlarga asoslanib qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum bo'lish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqqan kundan boshlab hisoblanadi.

5. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum bo'lish fakti «O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida» Qonunning 31, 32-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida shaxs doimiy istiqomat qiladigan joyda ichki ishlar organlari tomonidan, xorijda doimiy istiqomat qiluvchilar uchun esa konsullik muassasalari tomonidan qayd etiladi¹.

«O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 18-moddasiga ko'ra, ilgari O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan shaxs o'z iltimos-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

nomasiga binoan ushbu Qonun talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga tiklanishi mumkin¹.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qayta tiklash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ariza beriladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qayta tiklash to'g'risidagi ariza bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish va ularni ko'rib chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish haqidagi arizalarni ko'rib chiqish uchun mazkur Nizomda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Arizada O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum bo'lish sabablari ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari Komissiyasi materiallarni ko'rib chiqadi va O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qarorlar qabul qilishi uchun takliflar kiritadi².

“O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining Konstitutsiyaviy asoslari” bobiga xulosa keltiradigan bo'lsak, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sari olg'a qadam tashlayotgan mustaqil davlatimizda fuqarolik institutining huquqiy asoslari va asosiy tamoyillari mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq yaratib bo'lindi. Fuqarolik holatiga tegishli asosiy tamoyillarning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi natijasida fuqarolarning davlat bilan mustahkam xuquqiy munosabatiga asos solindi. Yagona fuqarolikning o'rnatilganligi, teng fuqarolik, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanishi, davlat o'z fuqarolarining himoyachisi ekanligi, nikohdan o'tishda va uni bekor qilishda fuqarolikning saqlanib qolishi, fuqaroni chet davlatga topshirishga yo'l qo'ymaslik, chet davlat fuqaroligiga mansublikning tan olmaslik kabi tamoyillarning mustahkamlab qo'yilganligi buning yaqqol dalilidir. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini qabul qilish, o'zgartirish, fuqarolikning to'xtatilishi va fuqarolikni tiklash o'zining mustahkam huquqiy asoslariga ega.

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axbotnomasi, 1992 y. №9. 18-modda.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

II-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK MASALALARI BILAN SHUG'ULLANUVCHI DAVLAT IDORALARI.

2.1-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari va ularning vakolatlari.

«O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning V-bobida «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari va ularning vakolatlari» qat'iy mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur Qonunning 29-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;

O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari¹.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 22-bandiga binoan, «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga oid masalalarni hal eadi»².

«O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 30-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik masalalariga oid vakolatlari mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

1) O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida;

2) chet elda yashayotgan ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishli iltimosnoma bilan murojaat etgan taqdirda ularni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida;

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 29-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: «O'zbekiston» 2012, -40-b, 27-bet.

- 3) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash to'g'risida;
- 4) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida;
- 5) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish to'g'risida qaror qabul qiladi¹.

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 39-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «fuqarolik masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonlar chiqaradi.

Agar farmonda boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, fuqarolikdagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqarilgan kundan boshlanadi.

Fuqarolik masalasiga oid takroriy ariza, qoida tariqasida, shu masalaga oid avvalgi qarordan keyin bir yil o'tgach ko'rib chiqiladi. Ish uchun muhim bo'lgan hamda ariza beruvchiga ma'lum bo'lmagan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'lmagan vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda takroriy ariza ilgariroq ham ko'rib chiqilishi mumkin»².

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 31-moddasida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining vakolatlari mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va tegishli vakolatlar berilgan unga bo'ysunuvchi idoralar:

- 1) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslardan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalarni qabul qiladi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizani asoslash maqsadida keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;
- 3) fuqarolik masalalariga doir arizani zarur hujjatlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga yo'llaydi;
- 4) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 30-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

² O'sha qonun. 39-modda.

5) O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotgan hollarni qayd etadi¹.

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar idoralari tomonidan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasporti topshiriladi. 16 yoshga etmagan bolalarning hujjatlariga ularning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi yozib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida yashab turgan lekin O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'xtatilgan, boshqa davlat fuqarosi bo'lmagan shaxslarga ichki ishlar idorasi tomonidan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga mo'ljallangan istiqomat guvohnomasi beriladi².

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va tegishli vakolatlar berilgan unga bo'ysunuvchi idoralar tomonidan respublika hududida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 31, 35-moddalariga muvofiq ichki ishlar organlari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini uning shaxsiy arizasiga binoan, shuningdek uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi xususida shubha yuzaga kelgan boshqa barcha hollarda aniqlaydilar.

2. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansublikni aniqlash chog'ida shaxs o'zining O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi yoki undan mahrum bo'lishi sabablarini ko'rsatib, tarjimai holini, yashayotgan muddati va oilasining tarkibi ko'rsatilib, doimiy istiqomat joyidan ma'lumotnomani, uchta fotosuratni taqdim etadi.

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 31-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

² O'sha qonun. 42-modda.

3. Shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlash yakunlari bo'yicha asosli xulosa chiqariladi, uni tegishli ichki ishlar organining rahbari imzolaydi va shahar yoki tuman hokimi tomonidan tasdiqlanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublikni aniqlash chog'ida shaxsga, zarur hollarda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini berish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish va chet el pasportini yoki uning o'rnini bosadigan hujjatni ichki ishlar organlariga topshirish taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining chet el pasportini yoki uning o'rnini bosadigan hujjatni topshirishdan bosh tortganligi tegishli xulosada ko'rsatiladi, shaxsga esa uni mazkur hujjat qaysi davlatga tegishli bo'lsa o'sha davlatning elchixonasi yoki konsulxonasiga yuborish tavsiya etiladi¹.

«O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 32-moddasida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining, O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalarining vakolatlari mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari:

1) chet ellarda doimiy yashab turgan shaxslardan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalarni qabul qiladi;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizani asoslash maqsadida keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;

3) fuqarolik masalalariga doir arizalarni zarur hujjatlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga yo'llaydi;

4) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;

5) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganligini qayd etadi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

6) O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashab turgan fuqarolarini hisobga oladi¹.

«O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasporti topshiriladi. 16 yoshga etmagan bolalarning hujjatlariga ularning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi yozib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari xorijda doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Xorijda doimiy yashovchi shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi to'g'risidagi arizasi «O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonunining 32, 35-moddalariga muvofiq qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi. Ariza beruvchining bunday arizasi va tarjimai holiga oid ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tasdiqlagan shakldagi so'rov varaqalari (anketalar)da bayon etiladi va unga arizachining fotosuratlari ilova qilinadi.

2. Ariza beruvchi shaxsda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansublik bilan aloqador holatlarni shak-shubhasiz tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda konsullik muassasasining rahbari ushbu masala yuzasidan mustaqil qaror qabul qiladi.

Ariza beruvchida tegishli hujjatlar bo'lmagan taqdirda konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligiga so'rov yo'llaydi.

3. O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi ariza bergan shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar orqali tekshiradi va qabul qilgan

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 32-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

qaror haqida konsullik muassasasini xabardor etadi. Ariza bergan shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi tasdiqlangan taqdirda konsullik muassasasi unga O'zbekiston Respublikasining belgilangan nusxadagi pasportini beradi va konsullik hisobiga oladi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizomning VII-bo'limida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari Komissiyasining ishini tashkil qilish»ning tartibi mustahkamlangan bo'lib, unga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari Komissiyasining ishini tashkil qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti huzuridagi Komissiyani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat muassasalarining ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning, ilmiy-ijodiy jamiyatlar hamda jamoatchilikning vakillaridan iborat tarkibda 5 yil muddatga tashkil etadi.

2. Komissiya jamoatchilik asosida ishlaydi. Komissiya a'zolariga o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi.

3. Komissiyaning majlisi materiallar tayyorlanishiga qarab chaqiriladi.

4. Komissiyaning majlisini Komissiya raisi yoki uning topshirig'iga binoan rais o'rinbosari o'tkazadi.

5. Komissiya a'zolarining uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda u huquqiy vakolatga ega deb hisoblanadi. Komissiyaning qarori hozir bo'lgan komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo'lib qolganida ariza rad qilingan hisoblanadi. Komissiya qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda komissiyaning majlisda qatnashgan barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

Komissiya o'rganib chiqilgan materiallar asosida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaror qabul qilishi uchun takliflar kiritadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

6. Komissiya takliflarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilinadi¹.

«O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 41-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarga nisbatan fuqarolik masalalariga oid qarorlarning ijrosi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning tegishli idoralari, fuqarolik holatini qayd etish bo'limlari, chet elda yashovchi shaxslarga nisbatan esa O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi zimmasiga, O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari zimmasiga yuklatiladi².

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid qarorlar ijrosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari Komissiyasi tomonidan, shuningdek boshqa vakolatli idoralar tomonidan o'z huquqlari doirasida nazorat etiladi³.

«O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 41-moddasida mansabdor shaxslarning fuqarolik masalalariga oid nohaq xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibi mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra: “Fuqarolik masalalariga oid arizalarni qabul qilishdan asossiz bosh tortganlik arizani ko'rib chiqish muddatini buzganlik, shuningdek, mansabdor shaxslarning fuqarolik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish tartibini va fuqarolik masalalariga oid qarorlarni ijro etish tartibini buzadigan boshqa nohaq xatti-harakatlari xususida ular bo'ysunadigan yuqori mansabdor shaxsga yoki sudga qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin”⁴.

1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksining 43-moddasiga binoan, “Fuqarolarning murojatlarini ko'rib chiqishni g'ayrihuquqiy tarzda rad etganlik, murojatlarni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzganlik, asossiz, qonunga zid qaror qabul qilganlik, shuningdek fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklashni, shikoyat munosabati

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 20-noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

² «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi qonunining 41-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

³ O'sha qonun. 43-modda.

⁴ O'sha qonun. 44-modda.

bilan qabul qilingan qarorni real bajarishni ta'minlamaganlik — mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga asos bo'ladi"¹.

1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi»ning 144-moddasiga binoan, "Murojat ko'rib chiqilishini asossiz rad etish, murojaatni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, asossiz, qonunga zid qaror qabul qilish yoxud fuqarolarning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlarni oshkor etish, shuningdk fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini fuqarolarning huquqlari yoki fuqarolar, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadiga manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadigan holda buzish — eng kam oylik ish haqqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi"².

¹ «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksining 43-moddasi. <http://lex.uz> saytidan olindi.

² «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi»ning 144-moddasi. <http://lex.uz> saytidan olindi

2.2-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning VI-bobi «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibi »ni belgilaydi va u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) fuqarolik masalalariga oid arizalar topshirish tartibi (33-modda);
- 2) fuqarolik masalalariga oid arizalarning shakli (34-modda);
- 3) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublikni aniqlash (35-modda);
- 4) fuqarolik masalalariga oid arizalarni rasmiylashtirish tartibi (36-modda);
- 5) fuqarolik masalalariga oid arizalar yuzasidan xulosalar (37-modda);
- 6) arizalar va taqdimnomalarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari Komissiyasida dastlabki tarzda ko'rib chiqilishi (38-modda);
- 7) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan fuqarolik masalalariga oid qarorlarning qabul etilishi (39-modda);
- 8) fuqarolik masalalariga oid arizalarni ko'rib chiqish muddati (40-modda).

Fuqarolik masalalariga oid arizalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ariza beruvchilarning doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralari orqali, chet elda doimiy yashovchi shaxslar tomonidan esa O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari orqali topshiriladi.

Chet davlat fuqarosi bo'lgan shaxs o'z fuqaroligini o'zgartirish niyatiga mazkur davlatning munosabatini ko'rsatuvchi hujjatni taqdim etishi shart¹.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga olish, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga tiklash yoki undan chiqish to'g'risidagi iltimosnomalar arizachining yozma iltimosiga binoan ko'rib chiqiladi. 18 yoshga to'lmagan shaxslar xususidagi iltimosnomalar ular vakillarining notarial idoralar tomonidan, chet elda esa O'zbekiston Res-

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 33-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.

publikasining tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan qonuniy vakillarining iltimosiga binoan ko'rib chiqiladi.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga olish, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga tiklash va undan chiqarish to'g'risida ariza topshirish chog'ida ularning roziligi bo'lishi shart. Bunday rozilik yozma bayon etilishi va notarial idoralar tomonidan, chet elda esa O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasalari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Voyaga etmagan bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi to'g'risida iltimosnoma topshirganda, basharti uning ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lib qoladigan bo'lsa, uning o'z bolasining O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga munosabati bildirilgan arizasi ham taqdim etilishi kerak. Bunday ariza notarius tomonidan, chet elda esa O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Basharti ariza beruvchi savodsizligi yoki jismoniy kamchiliklari sababli arizani imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan boshqa kishi arizani imzolaydi, bu haqda ichki ishlar idorasi, chet elda esa O'zbekiston Respublikasi tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi tomonidan arizaga yozib qo'yiladi¹.

Shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi to'g'risidagi ariza uning doimiy istiqomat joyida ichki ishlar idorasiga, chet elda doimiy yashaydigan shaxs tomonidan esa O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasasiga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublikni aniqlashda shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi bilan bog'lanayotgan vaziyat boshlangan paytda amal qilib turgan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ham-

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 34-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

da O'zbekiston Respublikasi tuzgan xalqaro shartnomalarning qoidalari qo'llaniladi¹.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar ariza beruvchi shaxsan murojaat etgan taqdirda uning doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralari, chet elda doimiy yashovchi shaxslarga nisbatan esa O'zbekiston Respublikasi-ning tegishli diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan rasmiylashtiriladi.

Uzrli sabablar bo'lgan taqdirda ichki ishlar idoralari, tegishli diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari fuqarolik to'g'risidagi hujjatlarni boshqa shaxs- lar yoki pochta orqali yuborilgan arizalarga muvofiq rasmiylashtirishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar berilganda davlat boji to'lanadi, uning miqdori O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi².

Fuqarolik masalalariga oid arizani rasmiylashtirayotgan ichki ishlar idorasi yoki tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoxud konsullik muassasasi mazkur ariza yuzasi- dan asoslangan xulosasini chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Tash- qi ishlar vazirligi fuqarolik masalalariga oid arizalar yoki taqdimnomalar yuzasidan o'z xulosalarini hamda boshqa zarur hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari komissiyasi nomiga yuboradilar.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi arizalarga oid xulosalarda ariza beruvchining davlat oldida bajarilmay qolgan majburiyatlari yoki uning fuqarolar yoxud davlat, kooperativ va boshqa jamoat tashkilotlari muhim man- faatlari bilan bog'liq bo'lgan mulkiy majburiyatlari xususidagi, uni ayblanuvchi sifa- tida jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi, yoxud unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan, ijro etilishi lozim bo'lgan hukmi mavjudligi haqidagi yo bo'lmasa mazkur shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi O'zbekiston

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Ken- gashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

² O'sha qonun. 36-modda.

Respublikasining davlat xavfsizligi manfaatlariga zidligi to'g'risidagi ma'lumotlar ham xabar qilinadi¹.

«O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunining 30-moddasida ko'rsatilgan fuqarolikka oid masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Fuqarolik masalalari Komissiyasini tuzadi.

Fuqarolik masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish paytida Komissiya ariza beruvchining dalillarini, taqdimnomaning mazmunini, davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining xulosalarini, boshqa hujjatlarni hamda tegishli tarzda rasmiylashtirilgan guvohlar ko'rsatmalarini atroflicha baholaydi.

Basharti, shaxs Qoraqalpog'iston Respublikasiga borib yashamoqchi bo'lsa, Komissiya Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining uni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul etish yoki uning fuqaroligini tiklash maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi, shu jumladan respublikada unga ish, turar-joy va boshqa qulayliklar berish imkoniyati bor-yo'qligi haqidagi fikrini e'ti-borga oladi.

Komissiya o'z ixtiyoridagi ish yuzasidan materiallar va hujjatlarni tegishli davlat idoralari va jamoat tashkilotlaridan talab qilib olishga haqlidir, bu davlat idoralari va jamoat tashkilotlari esa komissiya belgilagan muddatda zarur ma'lumotni taqdim etadilar.

Komissiya har bir ariza yoki taqdimnoma yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritadi.

Komissiyaning qarori bayon bilan rasmiylashtiriladi, uni komissiyaning majlisida qatnashgan barcha a'zolari imzolaydilar².

Fuqarolik masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonlar chiqaradi.

Agar farmonda boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, fuqarolikdagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqarilgan kundan boshlanadi.

Fuqarolik masalasiga oid takroriy ariza, qoida tariqasida, shu masalaga oid avvalgi qarordan keyin bir yil o'tgach ko'rib chiqiladi. Ish uchun muhim bo'lgan hamda

¹ «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonunining 37-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y. №9.

² O'sha qonun 38-modda.

ariza beruvchiga ma'lum bo'lmagan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'lmagan vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda takroriy ariza ilgariroq ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Fuqarolik masalalariga oid arizalar yoki taqdimnomalarni ko'rib chiqish muddati bir yildan oshmasligi kerak.

“O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida”gi Nizomning II bo'limiga muvofiq, respublika hududida doimiy yashovchi shaxslarni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish uchun materiallarni rasmiylashtirish va ko'rib chiqish tartibi quyidagicha belgilangan:

So'nggi 5 yil O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan xorijiy fuqaro yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar organlari orqali O'zbekiston Respublikasining Prezidenti nomiga fuqarolikka qabul qilish to'g'risida ariza beradi. Arizada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olishi, uning talablarini bajarishi to'g'risidagi va xorijiy fuqarolikdan voz kechganligi to'g'risidagi majburiyat ko'rsatiladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

ikki nusxada ariza-so'rovnoma;

xorijiy fuqarolikdan chiqqanlik to'g'risida guvohlik beruvchi hujjat (fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan tashqari);

2 nusxada tarjimai hol;

kun kechirishning qonuniy manbalari mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (ish joyidan ma'lumotnoma yoki ish haqi, pensiya, nafaqa, dividendlar va kun kechirishning boshqa manbalari ko'rsatilgan boshqa hujjat);

to'rtta fotosurat;

2 nusxada oilasining tarkibi to'g'risida ish joyidan ma'lumotnoma;

davlat boji to'langanligi yoki uni to'lashdan ozod qilinganligi haqidagi hujjat.

18 yoshga to'lmagan shaxsni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi ariza uning qonuniy vakillari tomonidan bola tug'ilganligi haqidagi guvohnomaning nusxasi bilan birgalikda beriladi. 14 dan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganlar ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining arizasiga notarial idoralar tomonidan tasdiqlangan ruxsatnomani taqdim etishlari kerak.

Arizalar, so'rovnoma va tarjimai hollarning barcha nusxalarini arizachi ular yozilgan sanani ko'rsatib imzolashi zarur.

Arizachi ushbu Nizomda ko'zda tutilgan barcha hujjatlarni topshirgan paytdan boshlab taqdimnoma ijro uchun qabul qilingan deb hisoblanadi.

Istiqomat joyidagi ichki ishlar organlari arizachining rasmiylashtirilgan hujjatlarini tegishli suratda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining ichki ishlar boshqarmalariga yuboradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari ichki ishlar boshqarmalari O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi hujjatlar rasmiylashtirilishi to'g'riligini tekshiradilar, ushbu masalalar yuzasidan 2 nusxada hujjatlar yig'ma jildini yuritadilar va milliy xavfsizlik tegishli organlarining fikrini so'raydilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahri hokimliklari ichki ishlar boshqarmalarining materiallari va xulosalarini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yuboradilar.

O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi o'z xulosasini O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi materiallar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi komissiyaga va respublikaning tegishli vakolatli organlari (Milliy xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi)ga yuboradi. Mazkur vakolatli organlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi komissiyaga faqat o'z xulosalarini yuboradilar, hujjatlarni esa O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga qaytaradilar.

O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi komissiya hujjatlarni ko'rib chiqadi va O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaror qabul qilishi uchun takliflar taqdim etadi.

Yuqoridagi jarayondan so'ng fuqarolikka qabul qilish to'g'risida Prezident Farmoni chiqadi yoki fuqarolikka qabul qilish rad etiladi. Agar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxs bir necha bor fuqarolikka qabul qilinishni so'rab muro-

jaat qilgan bo'lsa, tegishli organ tomonidan rad javobi berilganmi yoki shunchaki javobga oydinlik kiritilmaganmi, shuni aniqlab olish kerak. Agar tegishli organlar tomonidan rad javobi berilgan bo'lsa, demak arizachi fuqarolikka qabul qilinmagan. Shaxslarni fuqarolikka qabul qilish yoki qilmaslik davlatning huquqi bo'lib, yuqorida keltirilgan hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida ariza beruvchi haqida ijobiy xulosa chiqmaganligi sabab bo'lishi mumkin. Agar arizaga oydinlik kirituvchi javob olinmagan bo'lsa, unda yuroqida keltirilgan rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan hujjatlar to'la va aniq shaklda, qonunda ko'rsatilganidek topshirilganligiga e'tibor qaratish lozim va hujjat topshirilgan ichki ishlar organlaridan arizaning natijasini talab qilish kerak.

Demak, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etish, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi va uning vakolatli idoralari, xorijda esa O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, diplomatiya va konsullik muassasalari tomondan amalga oshiriladi. Bunda har bir davlat organi fuqarolik bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etishda o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquqlari hamda manfaatlarini himoya qiladilar.

2. 3-§. O'zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi ("Aqliy hujum" metodi orqali).

Darsning maqsadi:

1) Ta'limiy maqsad: O'zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari to'g'risida batafsil ma'lumot berish.

2) Tarbiyaviy maqsad: Yoshlarni fuqarolik mas'uliyatini oshirish va vatanga bo'lgan mehrini oshirish va ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash.

3) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish.

Darsning turi: Noan'anaviy «Aqliy hujum» metodi.

Dars jixozi: Doska, bo'r, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik ./.Mas'ul muharrir: A.X.Saidov-T.:TDYUI, 2005.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
 - A) Salomlashish.
 - V) Davomat.
- 2.O'tilgan mavzuni tiklash.
- 3.Yangi mavzu bayoni

Dars rejasi:

1. Fuqarolik tushunchasi va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini o'zgartirish asoslari.
3. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash asoslari.
4. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari va ularning vakolatlari.
5. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibi.

O`tilgan mavzu munozara tarzida o`quvchilardan so`rab olinadi.

O`rtaga tashlangan tushunchalar “Fuqarolarining asosiy huquqlari”, “Fuqarolar-ning burchlari”, “Erkinlik” bu tushunchalar to`g`risida o`quvchilar o`zlarining mustaqil fikrlarini bildiradilar

Yangi mavzumiz “O`zbekiston Respublikasi fuqaroligining Konstitutsiyaviy asoslari”

Mavzuni o`qituvchi boshlab beradi: Savol - O`quvchilar sizlar “fuqaro” va “fuqarolik” deganda nimani tushunasizlar?

O`quvchilar taxminan quyidagicha javob beradilar:

- muayyan davlatga tegishlilikni;
- davlat va shaxs o`rtasidagi bog`liqlikni;
- insonning huquqiy tomondan himoyalaniishi;
- qonuniy manfaatlarining davlat ichida va uning tashqarisida qo`llanilishi;
- shaxsning muayyan davlat bilan siyosiy-huquqiy aloqasi;
- shaxsning aniq bir davlatga siyosiy-huquqiy mansubligi;

O`qituvchi o`quvchilarning fikrlarini tinglab, ularni fikr mulohazalarini davom qildirdi:

Bu mavzu ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etayotgan halqi-mizning maqsad muddaolarini va orzu intilishlarini, bir so`z bilan aytganda, yoshlarning fuqarolik va uning huquqiy asoslari to`g`risidagi bilimlarini mustahkamlash, oshirish, fuqorolik jamiyatini shakllantirishga doir bilim va ko`nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik tushunchasi jamiyatning hozirgi davrigacha, ya`ni huquqiy davlat tomon rivojlanishida katta yo`lni bosib o`tdi. U jamiyatning demokratik rivojlanishida qo`lga kiritilgan ulkan yutuqlardan biri. Fuqarolik tushunchasi qadimiy Yunonistonda va Rimda mavjud bo`lsa-da, asosan feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o`ta boshlaganda, hozirgi shaklida paydo bo`la boshladi va ilk bor “shaharlik” (frantsuzcha

“situayyan”, inglizcha “sitezen”, ruscha “gorojanin-grajdanin”) degan ma’nolarni anglatgan.

“Fuqarolik” atamasi “shahar” va “shaharlik” so’zlaridan kelib chiqqan. Ingliz tilida – “city”, - “cityzenship”. Nemis tilida “burger”- faqat fuqaro emas balki shaharda yashovchi hamdir. Ushbu atamaning izohi ilk respublikalar o’zini-o’zi boshqaruvchi shaharlarning tajribalarini o’zlashtirib olganlaridan bo’lsa kerak. Hozirgi kunga kelib rasmiy hujjatlarda fuqarolikni ifodalash uchun boshqa atamadan foydalaniлади: “nationality” (ing), “nationalite”(frants), “nasionlita”(ital). Bu davlatga tegishlilik ma’nosini beradi. E’tiborni shunga qaratmoq lozimki, “nation” atamasi kelib chiqishiga ko’ra “millat” degan ma’noni ifoda etadigan hozirgi kundagi kabi fuqarolikdan tashqari “tegishlilik”, “tobelik” (“poddanstvo”) atamalari ishlatiladi.

Ilk bor “fuqaro” atamasi Frantsuz revolyutsiyasining 1799-yildagi “Inson va Fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”da bayon etilgan. 18-asrda Buyuk frantsuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e’lon qilinishi bilan fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a’zolari — “fuqarolar” tushunchasi paydo bo’ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog’langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. Ushbu davrdan boshlab “fuqaro” tushunchasi ozod va erkin shaxs ma’nosida qo’llanilib, halqaro huquq normalarida “grajdanin” termini bilan yuritildi.

“Fuqaro” va “fuqarolik” tushunchasiga huquqshunos olimlarimizning asarlarida, ilmiy ishlarida va boshqa adabiyotlarda bir qator ta’riflar berilgan bo’lib, quyida ulardan bir nechtasini keltiramiz.

Birinchi ta’rif: “fuqarolik deganda, insonning huquqiy yoki siyosiy-huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarini davlat ichida va uning tashqarisida qo’llanishi tushuniladi”;

Ikkinchi ta’rif : “fuqarolik - shaxsning aniq bir davlatga siyosiy va huquqiy mansubligi”;

Uchinchi ta’rif : “fuqarolik deganda, jismoniy shaxsning ma’lum bir davlat bilan mustahkam huquqiy bog’lanishiga aytiladi”;

To’rtinchi ta’rif: “fuqarolik - shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy-

huquqiy aloqasi; bu aloqa shaxs va davlatning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi”;

Beshinchi ta'rif : “fuqarolik - shaxsning muayyan davlat bilan mustahkam, uzviy siyosiy-huquqiy munosabatini anglatuvchi tushunchadir”.

Demak, yuqorida fuqarolik tushunchasiga keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, fuqarolik tushunchasi shaxsning ma'lum bir davlat bilan mustahkam huquqiy bog'lanishini, shaxsning muayyan bir davlatga siyosiy-huquqiy mansubligini, shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini aks ettiruvchi huquqiy tushunchadir.

O'qituvchi o'quvchilarga savol tashlaydi: SAVOL: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish va O'zbekiston Respublikasida fuqarolikni o'zgartirish asoslari to'g'rida nimalarni bilasiz ?

Birinchi o'quvchi: «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasida shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish asoslari qo'yidagicha belgilangan:

- tug'ilganda;
- fuqarolikka qabul qilinishi natijasida;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha;
- qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha

Ikkinchi o'quvchi: Prezidentimiz I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzasida shunday degan edi: “O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganidan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir. Fuqarolik har bir shaxsga respublikaning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy turmushida mumkin qadar to'laroq ishtirok etish imkonini beradi. Chunonchi, shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. SHuningdek, u ma'lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki, O'zbekiston davlati ham fuqarolarning

manfaatlari va erkinliklarini Respublika hududida va uning tashqarisida himoya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi»¹.

O'qituvchi savol beradi: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash asoslari to'g'risida nimalarni bilasiz?

Uchinchi o'quvchi: «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunining III-bobida «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi asoslari» mustahkamlab qo'yilgan.

«O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunining 19-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida;
- 2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish oqibatida;
- 3) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;
- 4) ushbu Qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqaroligining to'xtalishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchi savol beradi: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Beshinchi o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi Qonunda belgilangan tartibda shaxsning iltimosnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat etiladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs davlat oldidagi majburiyatlarini yoki fuqarolarning yoxud davlat va jamoat tashkilotlarining muhim manfaatlari bilan bog'liq mulkiy majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi rad etilishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa yoki shaxsning O'z-

¹ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T.: «Sharq», 1993, 9-bet

bekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligi manfaatlariga zid bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga yo'l qo'yilmaydi.

Oltinchi o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti nomiga ariza beradi va uni doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar organlariga taqdim etadi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

ariza-so'rovnoma — 2 nusxada;

tarjimai hol 2 nusxada;

uchta fotosurat;

yashash joyidan belgilangan shakldagi ma'lumotnoma 2 nusxada;

ish yoki o'qish joyidan, ishlamaydiganlar esa faqat yashash joyidan 2 nusxada ma'lumotnoma taqdim etadi, unda mazkur shaxs davlat oldidagi hamma majburiyatlarini bajarganligi yoki fuqarolarning, davlat, kooperativ yoxud boshqa jamoat tashkilotlarining muhim manfaatlarini bog'liq bo'lgan mulkiy majburiyatlari bor-yo'qligi ko'rsatilgan bo'lib, tuman hokimligi tomonidan tasdiqlanishi lozim; chaqiriq yoshidagi shaxsni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonuniga muvofiq haqiqiy harbiy xizmatni o'tashdan ozod qilish to'g'risida harbiy komissariatdan ma'lumotnoma;

davlat poshlinasi to'langanligi yoki uni to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi hujjat.

O'qituvchi savol beradi: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash qanday tartibda amalga oshiriladi?

Etтинchi o'quvchi: «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonunning 18- moddasiga ko'ra, ilgari O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan shaxs o'z iltimosnomasiga binoan ushbu Qonun talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga tiklanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qayta tiklash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ariza beriladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qayta tiklash to'g'risidagi ariza bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish va ularni ko'rib chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish haqidagi arizalarni ko'rib chiqish uchun mazkur Nizomda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Arizada O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum bo'lish sabablari ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari Komissiyasi materiallarni ko'rib chiqadi va O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qarorlar qabul qilishi uchun takliflar kiritadi

O'qituvchi o'quvchilarni fikrini umumlashtirib, ularga qo'shimcha qildi:

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiati sari olg'a qadam tashlayotgan mustaqil davlatimizda fuqarolik institutining huquqiy asoslari va asosiy tamoyillari mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq yaratib bo'lindi. Fuqarolik holatiga tegishli asosiy tamoyillarning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi natijasida fuqarolarning davlat bilan mustahkam xuquqiy munosabatiga asos solindi. Yagona fuqarolikning o'rnatilganligi, teng fuqarolik, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanishi, davlat o'z fuqarolarining himoyachisi ekanligi, nikohdan o'tishda va uni bekor qilishda fuqarolikning saqlanib qolishi, fuqaroni chet davlatga topshirishga yo'l qo'ymaslik, chet davlat fuqaroligiga mansublikning tan olmaslik kabi tamoyillarning mustahkamlab qo'yilganligi buning yaqqol dalilidir. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini qabul qilish, o'zgartirish, fuqarolikning to'xtatilishi va fuqarolikni tiklash o'zining mustahkam huquqiy asoslariga ega.

Dars yakuni:

Darsni mustahkamlash uchun savollar.

1. Fuqaro va fuqarolik deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslari to'g'risida nimalarni bilasiz?

3. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish, o'zgartirish, to'xtatilishi va tiklanishi asoslari to'g'risida nimalarni bilasiz?

Uyga vazifa.

Mavzuni o'qib, konspekt yozib kelish.

Metodning afzalliklari:

- O'tilgan mavzuni yaxshi esda qolishiga yordam beradi.
- O'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.
- Har bir o'quvchi o'zining ishtirok etish ma'suliyatini his qiladi.

Bu metodning kamchiliklari:

- Ko'p vaqt talab qiladi.
- O'qituvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.
- O'quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli mavzu tanlash talab etiladi.

XULOSA

“O‘zbekistonda fuqarolik va uning Konstitutsiyaviy asoslari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha aniq faktlar va ma‘lumotlar asosida xulosa va takliflar keltiradigan bo‘lsak, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishni o‘z oldiga oliy maqsad qilib qo‘ygan mustaqil O‘zbekistonimizning mustaqilligini mustahkamlash, o‘z fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish hamda ularni kafolatlash maqsadida fuqarolik institutining huquqiy asoslarini yaratishga alohida e‘tibor qaratildi. Mana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun asosiy Qonunimizning 21, 22 va 23 moddalarida fuqarolik maqomining asosiy tamoyillari mustahkamlab qo‘yildi. Mazkur moddalarda yagona fuqarolik tamoyili, teng fuqarolik tamoyili, davlat o‘z fuqarolarini o‘z hududida va uning tashqarisida huquqiy himoya qilishi va homiylik ko‘rsatishi tamoyili hamda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy maqomi kabi asosiy tamoyillar qat’iy mustahkamlab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida 1992 yil 2 iyulda «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi asosiy yuridik hujjat hisoblanadi. «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi orqali O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish asoslari (II-bob); O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining to‘xtatilishi asoslari (III-bob); ota-onalarning fuqaroligi o‘zgarganda va farzandlikka olinganda bolalarning fuqaroligi (IV-bob); O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi O‘zbekiston Respublikasining davlat idoralari va ularning vakolatlari (V-bob); O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko‘rib chiqish tartibi (VI-bob); O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid qarorlarning ijrosi (VII-bob); mansabdor shaxslarning fuqarolik masalalariga oid nohaq xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish (VIII-bob) to‘g‘risidagi fuqarolik masalalariga oid asosiy qoidalar qat’iy mustahkamlab qo‘yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi materiallarni rasmiylashtirish va ko'rib chiqish tartibi (II-bo'lim) ni; O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish haqidagi materiallarni rasmiylashtirish va ko'rib chiqish tartibi (II-bo'lim) ni; O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotganlikni asoslash va rasmiylashtirish tartibi (II-bo'lim)ni; O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga tiklash tartibi (II-bo'lim ni; O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansublikni aniqlash tartibi (II-bo'lim) ni; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi komissiya ishini tashkil etish (II-bo'lim) kabi fuqarolikka oid masalalar doirasini tartibga solib berdi.

Yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslari musahkamlab qo'yilgan O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunga asoslanib O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yangi turdagi jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda, quyidagi ijtimoiy belgilarga ega:

birinchidan: O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi barcha xalqlar, elatlar, millati, tili, dinidan qat'iy nazar, tenghuquqlilik tamoyiliga asoslanganligida;

ikkinchidan: erkaklar va xotin-qizlar tenghuquqliligi to'la ta'minlanganligida;

uchinchidan: shaxsiy, ijtimoiy kelib chiqishi, mulki, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengligida;

to'rtinchidan: mahalliy bo'lmagan, fuqarolikni qay tarzda qabul qilganligidan qat'iy nazar, ularning huquqiy holati bir xil belgilanganligida;

beshinchidan: O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilgan. Fuqarolar bir vaqtda O'zbekiston va boshqa davlat fuqarosi bo'lishlari qonun bilan man etilganligida;

oltinchidan: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish va to'xtatish tartibi huquqiy hal qilinganligida;

ettinchidan: ota-onalarining fuqaroligi o'zgarganda bolalar fuqaroligining o'zgarish tartibi aniq belgilanganligida;

sakkizinchidan: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalari bo'yicha huquqiy hujjat qabul qiluvchi va ijrosini tekshiruvchi davlat organlari tizimi birligida;

to'qqizinchidan: fuqarolik masalalariga oid qarorlar yuzasidan shikoyat qilish tartibi aniqlanganligida;

o'ninchidan: O'zbekiston Respublikasi fuqarolik bo'yicha xalqaro shartnomalar turlari, xarakteri qonunda aniq belgilanganligidadir.

FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi .-T.: «O'zbekiston» 2012, - 40
2. «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksi. <http://lex.uz> saytidan olindi.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. <http://lex.uz> saytidan olindi
4. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991 y., 11-son, 246-modda).
5. «O'zbekiston Respublikasining fuqarligi to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y.№9.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash to'g'risida 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 20 noyabrdagi PF-500-son Farmoniga binoan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom.
8. Karimov I. A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T.: «SHarq», 1993.
9. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.// Bizan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom.-T.: O'zbekiston, 1996.-380 b.
10. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: O'zbekiston, 1996. – 394 b.
11. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999. – 413 b.
12. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O'zbekiston, 2000. – 525 b.
13. Karimov I. A. Konstitutsiya to'g'risida.-T.: Akademiya, 2001, -156 b.
14. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: O'zbekiston, 2001. – 439 b.
15. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: O'zbekiston, 2002. – 432 b.

16. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 320 b.
17. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T. 12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 400 b.
18. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. – T.: O'zbekiston, 2005. – 448 b.
19. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T. 14. –T.: O'zbekiston, 2006. –280 b.
20. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –T.: O'zbekiston, 2007. –320 b.
21. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 2007. –48 b.
22. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. –T.: O'zbekiston, 2007. –48 b.
23. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill. – T.: Adolat, 1992. – 64 b.
24. Inson huquqlari / Mas'ul muharrirlar: H. B. Boboev, I. R. Ramazonov. – T.: O'zbekiston, 1997. – 260 b.
25. Saidov A. X. Jahon konstitutsiyaviy amaliyoti va O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni. – T., 1992. – 46 b.
26. Qayumov R. Q. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997
27. Mamatqulov A. Xalqaro huquq. – T.: Adolat, 1997. – 319 b.
26. Davlat va huquq nazariyasi/Mas'ul muharrirlar H. B. Boboev, H. T. Odilqoriev . – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. – 528 b.
27. U. Tadjixanov, X. Odilqoriev , A. Saidov O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., «Sharq» - 2001, - 752- b, 340-bet.
28. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. I jild. Davlat nazariyasi. – T.: Adolat, 2001. – 336 b.

29. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. II jild. Huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2001. – 560 b.
30. Saidov A. X. Ko'chimov SH. N. Qonunchilik texnikasi asoslari. – T.: Adolat, 2001. – 279 b.
31. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi / Mas'ul muharrir A. Azizxo'jaev. – T.: SHarq, 2001. – 128 b.
32. Yuridik entsiklopediya/yuridik fanlar doktori, professor U. Tadjixanov umumiy tahriri ostida. – T.: «SHarq» 2001, -656-b. 493-bet.
33. Matkarimova G. Xalqaro huquq va O'zbekiston huquqiy tizimi. – T.: Adolat, 2002. – 90 b.
34. Saidov A. X. Inson huquqari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik.-T.: 2004, 271-bet.
35. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik ./Mas'ul muharrir: A.X.Saidov-T.:TDYUI, 2005, 119-bet.
36. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2005, 350 b.
37. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T.: « O'zbekiston » - 2008, b.
38. Hayitboev F.P., Najimov M.K. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari/ Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Z.M.Islomov. O'quv qo'llanma –T.:TDYUI, 2008. -246 b.
39. Hayitboev F.P., Najimov M.K. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Z.M.Islomov. O'quv qo'llanma –T.:TDYUI, 2010. -246 b.
- <http://lex.uz>
- <http://minjust.uz>
- <http://www.mvd.uz>
- <http://www.mfa.uz>
- <http://consul.mfa.uz>
- <http://www.uzbekconsulny.org>
- <http://ziyonet.uz>
- <http://referat.arxiv.uz>
- <http://fikr.uz>